

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.07/30.12.2019.YU.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ODIL SUDLOV AKADEMIYASI

ILYASOV ULUGBEK BAXTIYAROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUB’EKTLARINING
XORIJIY DAVLATLAR HUDUDIDAGI INVESTITSIYA FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi,
oila huquqi, xususiy xalqaro huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doctori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Pyasov Ulugbek Baxtiyarovich

О‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining xorijiy davlatlar hududidagi investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish..... 3

Ильясов Улугбек Бахтиярович

Правовое регулирование инвестиционной деятельности субъектов Республики Узбекистан на территориях иностранных государств..... 23

Pyasov Ulugbek Bakhtiyarovich

Legal regulation of investment activities of subjects of the Republic of Uzbekistan in the territories of foreign states..... 45

E’lon qilingan ishlar ro’yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.07/30.12.2019.YU.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ODIL SUDLOV AKADEMIYASI

ILYASOV ULUGBEK BAXTIYAROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUB’EKTLARINING
XORIJIY DAVLATLAR HUDUDIDAGI INVESTITSIYA FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi,
oila huquqi, xususiy xalqaro huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2022.3.PhD/Yu790 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (resume)) Ilmiy kengashning (www.tsul.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ma'rifiy portali (www.ziynet.uz) internet sahifasida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Samarxodjaev Batir Bilyalovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Gulyamov Said Saidaxrarovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Ergashev Vosidjon Yokubovich
yuridik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.07/30.12.2019. Yu.22.01 raqamli ilmiy kengashining 2025-yil 29-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy). Tel.: (99871) 236-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1445-son bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 35-uy). Tel.: (99871) 236-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14 noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-noyabrdagi 98-raqamli reyestr bayonnomasi)



Rustambekov

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu. Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Zamonaviy globallashtirish bosqichi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi davlatlarning barqaror rivojlanishida investitsiya jarayonlarining asosiy omil sifatidagi rolini yanada oshirmoqda. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari (TXI) hajmi 8 foizga kamaygan, biroq ayrim davlatlarda, jumladan AQSh va Hindistonda, o'sish kuzatilgan.¹ Shu bilan birga, chiqayotgan investitsiyalar hajmining kengayish tendensiyasi kuchayib bormoqda, bu esa kapital jalb etishning an'anaviy modelining o'zaro xalqaro investitsiya almashinuvida ishtirok etish yo'nalishida transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi.

Investitsion faoliyat ikki o'zaro bog'liq jihatni o'z ichiga oladi: xorijiy investitsiyalarni jalb etish va milliy kapitalni chet elda joylashtirish. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy rivojlanish nafaqat TXIning qabul qilish hisobiga, balki investitsiyalarni eksport qilish orqali ham ta'minlanadi. Bu esa davlatning tashqi iqtisodiy ishtirokini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va milliy biznesning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu yo'nalish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi kamayganiga qaramay, o'zbek rezidentlarining chiqayotgan investitsiyalari hajmi 2022-yildagi 4 million AQSh dollaridan 2024-yilda 37 million dollarga oshdi, ularning jamg'arilgan hajmi esa 244 million dollarga yetdi.² Bu esa ilgari mavjud bo'lmagan investitsion faollik segmentining shakllanayotganidan dalolat beradi.

2019-yilgacha chiqayotgan investitsiyalarni huquqiy tartibga solish qonunchilik doirasidan tashqarida edi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ushbu jarayonni institutsionallashtirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi: Qonunning XI bobida rezidentlarning xorijda investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutuvchi normalar mustahkamlandi. Shu tariqa, ko'p yillar davomida mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliq bartaraf etilib, tegishli huquqiy mexanizmni shakllantirish uchun asos yaratildi.

Qonunchilik bazasining rivojlanishida erishilgan muayyan yutuqlarga va kapital eksporti jarayonlarining amaliy ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, chiqayotgan investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari ham ilmiy adabiyotlarda, ham normativ-huquqiy darajada yetarlicha ishlab chiqilmagan. Agar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari keng yoritilgan bo'lsa, milliy investorlarning xorijdagi huquqlarini kafolatlash, tartibga solish va himoya qilish jihatlari deyarli o'rganilmagan, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham.

Chiqayotgan investitsiyalarning huquqiy jihatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan milliy huquqiy tizimni takomillashtirish kontekstida ushbu tadqiqotga alohida ahamiyat bag'ishlaydi. Shu munosabat bilan tanlangan mavzu O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalar bilan bevosita bog'liqdir. Jumladan, Fuqarolik kodeksi (1995, 1996-yillar), "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun (2019-yil), "Xususiy

¹ <https://fomag.ru/news-streem/pryamyie-inostrannye-investitsii-v-mire-sokratilis-na-8-v-2024-godu-yunktd/>

² https://unctad.org/system/files/non-official-document/wir_fs_uz_en.pdf

mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2012-yil), “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2012-yil), “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil), “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (2021-yil), shuningdek “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik hujjati shular jumlasidandir.

Shunday qilib, tadqiqot mavzusining yuqori darajadagi dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: jahon investitsiya tizimidagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy salohiyatini oshirish zarurati, investitsiya siyosatining yangi yo‘nalishining shakllanishi hamda chiqayotgan investitsiyalarni tartibga solish sohasidagi huquqiy va ilmiy bo‘shliqlarning mavjudligi. Mavzuning dolzarbligi uning yetarlicha ilmiy ishlab chiqilmagani bilan uyg‘unlashib, investitsiya faoliyati, tadbirkorlik erkinligi, tashqi iqtisodiy aloqalar va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda kompleks nazariy-huquqiy tadqiqot o‘tkazish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Ushbu dissertatsiya respublikaning ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan bo‘lib, “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy hamda ta’lim sohalarida innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish” (2020) yo‘nalishiga tegishlidir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi doirasida, jumladan, xorijiy investitsiyalarni tartibga solish sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot esa ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarga munosib va qadri baland hissa bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning davlat dasturlari yoki ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi va taklif etilgan tadqiqot xalqaro investitsiya huquqining dolzarb masalalari, O‘zbekiston Respublikasi investitsiya huquqi hamda respublikaning investitsiya salohiyatini kengaytirish sohasidagi davlat dasturlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish rejalari bilan uyg‘unlashadi. Mazkur tadqiqot investitsiya munosabatlarini tartibga solishning me‘yoriy-huquqiy va shartnomaviy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy va mahalliy yuridik fanlarda chet el investitsiyalarining huquqiy tartibga solinishi asosan kiruvchi (jalb etiladigan) investitsiyalar kontekstida o‘rganilgan. Doktrina tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqshunoslarning e‘tibori asosan xorijiy investorlarni himoya qilish rejimlariga, ularning faoliyatiga beriladigan kafolatlarga hamda investitsion nizolarni hal etishning arbitraj mexanizmlariga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida G. Schwarzenberger‘ning asarlari alohida o‘rin tutadi, unda chet el investitsiyalarining xalqaro-huquqiy rejimi va davlatlarning nizolarni hal etishdagi ishtiroki ko‘rib chiqiladi.¹ Shuningdek, J. Cherian‘ning investitsion nizolarni arbitraj yo‘li bilan hal etish shakllariga bag‘ishlangan ishlari ham muhim ahamiyatga ega.² Shakllanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar

¹ Schwarzenberger G. The Regulation of Foreign Investment in International Law. - London: Stevens & Sons, 1967. - P. 45–78.

² Cherian J. Arbitration and Foreign Investment Disputes. - London: Kluwer, 1989. - P. 12–34.

uchun E. Nwogugu'ning tadqiqotlari muhim bo'lib, unda rivojlanayotgan davlatlardagi chet el investitsiyalarining huquqiy muammolari tahlil qilinadi.¹ Xalqaro investitsiya huquqining rivojlanishiga R. Dolzer va M. Stevens xorijiy investorlarni himoya qilish standartlarini o'rganish orqali², shuningdek, C. Wälde investitsiyalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari va davlatlarning javobgarligini tadqiq etish orqali sezilarli hissa qo'shganlar.³

MDH davlatlari orasida xorijiy investitsiyalar huquqiy rejimi masalalari eng batafsil Rossiya va Qozog'istonda o'rganilgan. S.G. Enikeev xorijiy investitsiyalar huquqiy rejimining olti asosiy xususiyatini ajratib ko'rsatgan.⁴ I.P. Faminskiy tahriri ostida Rossiyadagi xorijiy investitsiyalarning hozirgi holati va istiqbollari bag'ishlangan jamoaviy monografiya tayyorlangan.⁵ U. Yakovleva Rossiya investitsiya siyosatini xorijiy investorlar manfaatlarini hisobga olish tomon yo'naltirish zarurligini asoslab bergan⁶, D.K. Labin esa investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirishning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini tadqiq etgan.⁷ Qozog'istonda K.S. Maulenova va M.S. Tayimova ishlarida investitsiyalarni davlat tomonidan boshqarish konsepsiyalari hamda xorijiy investorlar uchun kafolatlar tizimi ko'rib chiqilgan.⁸ S.P. Moroz esa investitsiya huquqi manbalarining tasnifini va aralash xususiy-ommaviy tabiatga ega bo'lgan investitsiya shartnomasining nazariy modelini taklif qilgan.⁹

O'zbek yuridik fanida asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalariga qaratilgan. B.B. Samarxodjayeov O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning fuqarolik-huquqiy tabiatini tadqiq etgan¹⁰, S.S. Gulyamov - investitsiyalar rejimining qonunchilik asoslari va kafolatlarni amalga oshirish masalalarini o'rgangan¹¹, S.S. Xamroyev resurslardan foydalanish sohasidagi kontsessiya shartnomalarining huquqiy jihatlarini tahlil qilgan¹², Rustambekov I.R. esa investitsion nizolarni hal etish mexanizmlari hamda xalqaro arbitraj rivojlanishini tahlil qilgan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarning aksariyati - xorijiy hamda postsovet, jumladan, o'zbek tadqiqotlari - asosan kiruvchi investitsiyalar muammolariga qaratilgan. Rezidentlarning chiquvchi (tashqi) investitsiyalari, ularning huquqiy tabiati, xalqaro maqomi va himoya mexanizmlari esa yetarli darajada o'rganilmagan. Rustambekov, Samarxodjayeov, Gulyamov, Xamroyev, shuningdek,

¹ Nwogugu E. The Legal Framework for Foreign Investment in Developing Countries. — London: Macmillan, 1996. — P. 101–145.

² Dolzer R., Stevens M. Bilateral Investment Treaties. - The Hague: Kluwer, 1995. - P. 56–92.

³ Wälde C. Legal Frameworks for the Protection of Foreign Investment. - Oxford: OUP, 2002. - P. 22–67.

⁴ Еникеев С.Г. Иностранные инвестиции: правовые аспекты. - Москва: Юрист, 2005. - С. 34–52.

⁵ Фаминский И.П. (ред.). Иностранные инвестиции в современной России. - Москва: Наука, 2007. - С. 15–90.

⁶ Яковлева У. Инвестиционная политика России: правовые аспекты. - Москва: Юрист, 2008. - С. 11–45.

⁷ Лабин Д.К. Международное право защиты инвестиций. - Санкт-Петербург: Юридический центр, 2006. - С. 22–78.

⁸ Мауленова К.С. Государственное управление иностранными инвестициями в Казахстане. - Алматы: КазНАУ, 2010. — С. 33–70.

⁹ Мороз С.П. Инвестиционное право Казахстана: источники и правовой статус субъектов. - Алматы: Юрист, 2013. — С. 17–99.

¹⁰ Самарходжаев Б.Б. Иностранные инвестиции в Узбекистане: частноправовая природа и разрешение споров. - Ташкент: Юрид. лит., 2011. - С. 27–105.

¹¹ Гулямов С.С. Правовое регулирование иностранных инвестиций в Узбекистане. - Ташкент: Фан, 2010. - С. 15–62.

¹² Хамроев С.С. Концессионные договоры и иностранные инвестиции в сфере ресурсопользования. — Ташкент: Юрист, 2012. - С. 33–78.

Labin, Shvartsenberger, Doltser va boshqa mualliflarning asarlarida chiquvchi investitsiyalarni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari, kapital eksport qiluvchi davlatning javobgarligi hamda transchegaraviy investitsiya jarayonlarining xalqaro tartibga solish xususiyatlari tahlil qilinmagan.

Shunday qilib, mazkur dissertatsiya avvalgi tadqiqotlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

birinchi bor O'zbekiston rezidentlarining chiquvchi investitsiyalarini huquqiy tartibga solishning kompleks tahlili amalga oshirilgan;

chiquvchi investitsiyalarning xususiy-huquqiy tabiati asoslab berilgan;

qonunchilik va xalqaro majburiyatlardagi normativ bo'shliqlar aniqlangan;

xorijiy davlatlarning tartibga solish modellari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan;

xorijdagi milliy investorlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlari, shu jumladan arbitraj va shartnomaviy vositalar shakllantirilgan.

Dissertatsion tadqiqotning oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Sudyalar oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan bo'lib, "Investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" (2022–2025) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining chet elda investitsiya faoliyatini amalga oshirishiga oid investitsion munosabatlarni xalqaro huquq talablariga, ikki va ko'p tomonlama investitsiya bitimlariga, shuningdek, milliy qonunchilik va sud amaliyotiga muvofiq tarzda huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan amaliy yo'naltirilgan takliflar hamda ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

investitsiya munosabatlarining genezisi hamda investitsiyalarni tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalarini o'rganish;

investitsiyalar va investitsiya faoliyatining huquqiy mohiyati hamda mazmunini aniqlash;

xalqaro unifikatsiyalashgan va ikki tomonlama investitsiya sohasidagi xalqaro hujjatlarni chiquvchi investitsiyalarni tartibga solish samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi subyektlarining mamlakat tashqarisidagi investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalarini o'rganish va tanqidiy tahlil qilish;

investitsiyalar sohasidagi davlat boshqaruvi organlari tizimi va ularning vakolatlarini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi subyektlarining mamlakat tashqarisidagi investitsiya faoliyati ustidan hisob va nazorat mexanizmlarini tadqiq etish;

xalqaro va milliy sud (arbitraj) organlarida investitsiya nizolarini hal etishning huquqiy mexanizmini tahlil qilish;

investitsiya nizolari bo'yicha xorijiy sud (arbitraj) qarorlarini tan olish va ijro etish hamda milliy sud qarorlarini amalga oshirish jarayonini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasidan tashqarida subyektlarning investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida subyektlarning investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq milliy qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek, yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar hamda ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy, tizimli-strukturaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq-sotsiologik usullar, ilmiy manbalarni kompleks o‘rganish, induksiya va deduksiya hamda statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

investor uchun noqulay o‘zgarishlardan kafolat mulk, ulush, aksiya, savdo obyektlariga, turar joylarga, yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi hujjat kuchga kirgan sanadan boshlab amal qilishi, shuningdek, xorijiy investorlarning shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulk bojxona bojlardan ozod etilishi to‘g‘risidagi taklif asoslab berilgan;

xorijiy investitsiyalarga ega korxonalariga yer uchastkalari yigirma besh yilgacha ijaraga berilishi va binolar hamda inshootlarga mulk huquqi o‘tganda ijara huquqining ham o‘tishi to‘g‘risidagi taklif asoslab berilgan;

texnopark boshqaruv kompaniyasiga rezidentlar mahsulotini xalqaro bozorlarga targ‘ib etishga ko‘maklashish majburiyati yuklatilishi va investitsiya shartnomalarini tuzish, innovatsion hamda yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil etish huquqi berilishi to‘g‘risidagi taklif asoslab berilgan;

individual investitsiya hisob raqamini ochish va undan foydalanish tartibini, shu jumladan, mablag‘larni hisobga olish, imtiyozlarni qo‘llash hamda hisobni yopish tartibini huquqiy tartibga solish bo‘yicha taklif asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining chiquvchi investitsiyalari tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi. U transchegaraviy kapital harakatining xususiy-huquqiy tabiatiga tayanadi hamda uni tashqi iqtisodiy operatsiyalar va valyuta nazoratidan farqlaydi. Mazkur ta‘rifni qonunchilikka kiritish bo‘yicha takliflar tayyorlandi;

rezidentlarning xorijdagi investitsiyalari bo‘yicha xabarnoma berish, hisobot yuritish va huquqiy kuzatuv tartibini belgilovchi normalarni qonunchilikka kiritish taklifi ishlab chiqildi, bunda huquqni qo‘llash amaliyoti va investorlarni xalqaro himoya standartlari inobatga olindi;

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Valyuta tartibga solinishi to‘g‘risida”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

chiquvchi investitsiyalarni huquqiy tartibga solish sohasida vakolatli davlat organlari doirasi aniqlashtirildi hamda Adliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi, Markaziy bank, Tashqi ishlar vazirligi va Savdo-sanoat palatasi o‘rtasida funksiyalarni aniq ajratgan holda ularning vakolatlarini yuqori yuridik kuchga ega me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

xorijda investitsiya amalga oshirish jarayonida ex ante (oldindan) huquqiy baholash elementlarini joriy etish bo'yicha takliflar shakllantirildi, bunda huquqiy xatarlar, xalqaro yurisdiksiya, soliq oqibatlar va investorning mulkiy huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilinadi;

O'zbekiston Respublikasining kapital eksportini huquqiy tartibga solish Konsepsiyasi ishlab chiqildi, u xorijiy investitsiya subyektlarining huquqiy maqomini, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini, himoya kafolatlarini va rezidentlarning milliy hamda xalqaro institutlar bilan o'zaro aloqalarini tizimli asosda belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarini xalqaro-huquqiy va arbitraj mexanizmlari orqali himoya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi, xususan, ikki tomonlama investitsiya bitimlari, ICSID, UNCITRAL qoidalari va xorijiy sud qarorlarini tan olish amaliyoti asosida.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalariga, rivojlangan davlatlar tajribasiga, huquqni qo'llash amaliyotiga, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarining umumlashtirilgan xulosalariga asoslangan hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar approbatsiyadan o'tkazilgan bo'lib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan. Olingan natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy izlanishlar, qonunchilik ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, tegishli fuqarolik qonunchiligi normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi va biznes huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa qonunchilik faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda oliy yuridik o'quv yurtlarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda qo'llash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. O'zbekiston Respublikasi subyektlarining xorijiy davlatlar hududidagi investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

investor uchun noqulay o'zgarishlardan kafolat mulk, ulush, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, savdo ob'yektlari, turar joy binolari, yer uchastkalari hamda boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqni tasdiqlovchi hujjat kuchga kirgan sanadan boshlab amal qilishi, shuningdek, xorijiy investorlar va O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomalari asosida faoliyat yuritayotgan xorijiy fuqarolar shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kirayotgan mol-mulki bojxona boji to'lashdan ozod etilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasi to'rtinchi qismi uchinchi xatboshisi hamda 54-moddasi oltinchi qismi ishlab chiqilishida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 24-dekabrda №27/2-360-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif investorlar huquqlarini ta'minlashga xizmat qilgan.

xorijiy investitsiyalarga ega korxonalariga yer uchastkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yigirma besh yilgacha bo‘lgan muddatga ijaraga berilishi, bunday korxonalar tomonidan yer qonunchilik asosida foydalanilishi, shuningdek, bino va inshootlarga mulk huquqi o‘tgan taqdirda ijara huquqining ham o‘tishi haqidagi taklif “Investitsiyalar va investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 54-moddasi to‘qqizinchi, o‘ninchi va o‘n birinchi qismlarini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 24-dekabrda №27/2-360-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif investorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qilgan.

texnoparkning boshqaruvchi kompaniyasi rezidentlar mahsulotlarini xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etish va ularni xorijiy bozorlarga ilgari surishda ko‘maklashish majburiyatiga ega bo‘lishi, shuningdek, investitsiya shartnomalarini tuzish, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatish va o‘z vakolati doirasida xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo‘lishi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan “Hududlarda innovatsion va investitsion faoliyatni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga ilova qilingan “Inno” innovatsion ta‘lim-ishlab chiqarish texnoparki to‘g‘risidagi Nizomning 10 va 11-bandlarini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyatining Axborot-tahlil departamenti 2025-yil 5-fevraldagi №12-16-9-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif investorlar huquqlarini ta‘minlashga xizmat qilgan.

shaxsiy investitsiya hisobvarag‘ini ochish va undan foydalanish maqsadlarini, undagi pul mablag‘larini hisobga olish tartibini, ularning holati to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etish, ish haqi va boshqa daromadlar bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash hamda hisobvaraqni yopish tartibini belgilovchi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyundagi 331-son qarori bilan tasdiqlangan “Shaxsiy investitsiya hisobvarag‘ini ochish va undagi pul mablag‘larini hisobga olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni ishlab chiqishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2025-yil 20-yanvardagi №02/14-2-251-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif investorlar huquqlarini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan 1 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 6 tasi ilmiy maqola bo‘lib, 2 tasi xorijda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, ettita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va tadqiqot zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilayotgan oliy ta‘lim

muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan aloqasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektı va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangilik hamda tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining sinovdan o'tkazilishi, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida «Investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tartibga solishning umumiy nazariy-huquqiy jihatlari» deb nomlangan bo'lib, unda investitsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikning nazariy-huquqiy asoslari batafsil ko'rib chiqilgan.

«Xorijiy investitsiyalarning tushunchasi va huquqiy mohiyati» deb nomlangan 1.1-paragrafda xorijiy investitsiyalarning tushunchasi va ularning huquqiy tabiati fuqarolik, tadbirkorlik hamda xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot transchegaraviy kapital harakatining iqtisodiy-huquqiy mohiyatini ochib berish, investitsiya faoliyatining asosiy belgilari va zamonaviy huquq tizimidagi xorijiy investitsiyalar institutining asosiy funksiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Chet va mahalliy olimlarning (G. Schwarzenberger, M. Sornarajah, B.B. Samarxodjaye, Sh.G. Yuldashev va boshqalar) doktrinal yondashuvlari, shuningdek, xalqaro konvensiyalarda (1965-yilgi Vashington, 1985-yilgi Seul, 1994-yilgi Energetika Xartiyasi shartnomasi) hamda milliy qonunchiliklarda, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan ta'riflarning qiyosiy-huquqiy tahlili o'tkazildi.

Aniqlandiki, xalqaro huquqda investitsiyalar tushunchasining yagona, unifikatsiyalashgan ta'rifi mavjud emas, milliy qonunchiliklarda esa u davlatning iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Tadqiqotda chiqayotgan (xorijdagi) investitsiyalar uchun mualliflik ta'rifini joriy etish zarurligi asoslab berilgan bo'lib, bu dissertantning mustaqil ilmiy hissasini tashkil etadi.

Chet el investitsiyalari institutining huquqiy va iqtisodiy funksiyalari - muvofiqlashtiruvchi, qayta taqsimlovchi, modernizatsion va tahliliy, shuningdek, himoya, tartibga soluvchi hamda kafolatlovchi funksiyalar yoritilgan. Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Hindiston tajribasi asosida kapitalni tashqariga olib chiqishning huquqiy tartibga solinishiga oid yondashuvlar aniqlangan, shuningdek, paper investment - milliy kapitalning qayta integratsiyasi shakli sifatida tahlil qilingan.

O'tkazilgan tahlil natijalari asosida muallif tomonidan chiqayotgan investitsiyalarning mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va ularning asosiy belgilar - huquqiy himoyalanganlik, tadbirkorlik riski, tijoriy yo'nalganlik va transchegaraviy xarakter - aniqlangan. Olingan xulosalar keyingi bobdagi investitsiya faoliyatining huquqiy tartibga solinish manbalariga bag'ishlangan 1.2-paragrafni tayyorlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

«Investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning manbalari: xalqaro va milliy jihatlari» deb nomlangan 1.2-paragrafda xalqaro-huquqiy bazaning tahlili hamda xorijiy tajriba chuqur o'rganiladi. Unda xalqaro kapital harakatining huquqiy tabiati xususida so'z yuritilib, u xususiy-huquqiy va ommaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini o'zida mujassam etgan murakkab iqtisodiy-huquqiy hodisa sifatida tahlil qilinadi.

Transchegaraviy kapital harakati investitsiya faoliyatining xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va investitsiya huquqi tutashgan nuqtasida amalga oshuvchi shakli ekanligi ta'kidlanadi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar asarlarida "xalqaro kapital harakati" tushunchasiga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ushbu hodisaning asosiy xususiyatlari hamda tasnifiy belgilar aniqlangan. Shuningdek, uning huquqiy mazmunini belgilovchi asosiy elementlar - sub'yekt tarkibi, mulk shakli, sarmoya kiritish maqsadi hamda kapital harakatining huquqiy rejimi - alohida ko'rsatib o'tilgan.

Keyingi qismda kapital harakatining institutsional shakllari - to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa turdagi investitsiyalar, kreditlar, transfertlar hamda xorijiy aktivlardagi boshqa ishtirok shakllari - tahlil qilingan.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning huquqiy xususiyatlari, ya'ni sarmoya kirituvchi tomonidan investitsiya ob'ekti ustidan nazoratni ta'minlashi, hamda portfel investitsiyalarining boshqaruvda ishtirok etmasdan daromad olishga yo'naltirilganligi alohida yoritilgan.

Shuningdek, kapital oqimlarining global tendensiyalari va ularning mintaqalar bo'yicha tuzilmasi ko'rsatib o'tilgan. BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki ma'lumotlariga asoslanib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi assimetriya, ya'ni investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi hamda ularning xalqaro huquqiy rejimlarga bog'liqligi tahlil qilingan.

Bo'limda kapital harakatining xalqaro darajadagi huquqiy mexanizmlari ko'rib chiqilgan - davlatlarning ko'p tomonlama kelishuvlarda ishtiroki, xalqaro moliya institutlarining faoliyati, Jahon savdo tashkiloti (JSO), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) va boshqa tashkilotlarning ta'siri.

Huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari tahlil qilingan, jumladan: investitsiyalarning erkinligi, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, shaffoflik, shuningdek, milliy valyuta nazorati va iqtisodiy xavfsizlik choralari kelib chiqadigan huquqiy cheklovlar.

Xulosa qilinadi, xalqaro kapital harakati dunyo moliya tizimining muhim elementi bo'lib, uning asosi sarmoyadorlar iqtisodiy manfaatlari bilan davlatlarning huquqiy suvereniteti o'rtasidagi muvozanatga tayangan. Uning huquqiy tabiatini tushunish, chiquvchi investitsiyalar bo'yicha samarali milliy siyosatni shakllantirish uchun muhim bo'lib, bu keyingi bo'limlarda kapital eksportini huquqiy tartibga solish tahlilining nazariy asosini tashkil etadi.

"O'zbekiston Respublikasi subyektlarining xorijda investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari"ga bag'ishlangan **ikkinchi bobda** O'zbekistonning investitsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirish mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi.

"Kapitalning xalqaro harakati: huquqiy tabiati, institutsional shakllari va global iqtisodiy tizimga ta'siri" deb nomlangan 2.1-paragrafda xalqaro kapital harakatining mohiyatini transchegaraviy iqtisodiy-huquqiy munosabatlar to'plami sifatida ochib beradi, ular xalqaro davlat va xususiy huquq me'yorlari bilan tartibga solinadi.

Ko'rsatiladiki, ushbu institut davlatlarning investitsiyalarni himoya qilish majburiyatlari va investor bilan qabul qiluvchi yurisdiksiya o'rtasidagi xususiy-

huquqiy munosabatlarni birlashtiradi. Xalqaro kapital harakatining tushunchasi va tuzilmasini aniqlashga oid nazariy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan, uning asosiy shakllari - to‘g‘ridan-to‘g‘ri, portfel va qarz investitsiyalari, shuningdek, zamonaviy shartnoma konstruktsiyalari: koncessiyalar, mahsulot bo‘yicha bo‘lishish kelishuvlari, texnologiya eksporti.

Xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratilgan - Vashington va Seul konvensiyalari, investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlar, JSO va OECD aktlari. Shuningdek, institutsional strukturalarning roli ta‘kidlangan - ICSID, UNCITRAL, JBRR, IFC xalqaro standartlar va investitsion nizolarni hal etish mexanizmlarini shakllantirishda muhimdir.

Transchegaraviy kapital harakatining asosiy tendentsiyalari tahlil qilingan, jumladan, uning geografiasidagi o‘zgarishlar va huquqiy rejimlarning jahon moliya oqimlarini taqsimlashga ta‘siri. Xulosa qilib aytiladiki, xalqaro kapital harakati nafaqat resurslarni qayta taqsimlashning iqtisodiy jarayoni, balki zamonaviy global investitsion tizimning institutsional asoslarini shakllantiruvchi huquqiy kategoriya hisoblanadi.

“Jismoniy va yuridik shaxslar - rezidentlarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish muammolari”ga bag‘ishlangan 2.2-paragrafda chiqayotgan investitsiyalarni rivojlantirishni cheklovchi asosiy to‘siqlar o‘rganiladi. Ko‘rsatib o‘tilishicha, davlat siyosati va normativ-huquqiy baza tarixan asosan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yo‘naltirilgan, rezidentlarning chet eldagi faoliyatini tartibga solish esa parchalanib, tizimsiz qolgan.

Investitsiya, tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta tartibga solish qonunchiligi tahlili asosida investorlarga nisbatan subyekt tarkibi bo‘yicha ziddiyatlar, kapitalni olib chiqishga qo‘yilgan cheklovlar va valyuta nazoratidagi kamchiliklar aniqlangan. Investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomini bir xillash va valyuta rejimini liberallashtirish zarurligi asoslangan. Amaldagi qonunlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan, bu orqali kapitalni olib chiqish tartiblari soddalashtirilishi va chiqayotgan investitsiyalarning samaradorligi oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Alohida e‘tibor regulator (bilvosita) ekspropriatsiya masalasiga qaratilgan va davlatning aralashuvi qabul qilinadigan mezonlarini qonuniy belgilash zarurligi ta‘kidlangan. Xulosa sifatida, rezidentlarning iqtisodiy manfaatlari bilan huquqiy himoya kafolatlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlaydigan chiqayotgan investitsiyalarni kompleks huquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish zarurligi belgilangan.

Xulosa qilindi: kapital eksportini huquqiy tartibga solish bo‘yicha kompleks kontseptsiyani shakllantirish zarur, u davlat va xususiy investorlar manfaatlari muvozanatini, valyuta rejimini liberallashtirishni hamda investitsiya sohasida davlat boshqaruv tizimini institutsional mustahkamlashni nazarda tutadi.

“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar sohasida davlat boshqaruvi, hisobga olish va nazoratning huquqiy tartibga solinishi” masalalari yoritilgan 2.3-paragrafda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tizimi, jumladan, kapitalni olib chiqish bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olish, hisobot berish va monitoring qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ko‘rsatilishicha,

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha rivojlangan huquqiy rejim mavjud bo'lsa-da, chiqayotgan investitsiyalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza fragmentar bo'lib, ushbu sohani samarali davlat boshqaruvi bilan ta'minlamaydi.

Valyuta operatsiyalari, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiya siyosatini tartibga soluvchi qonunchilik tahlili natijasida Vazirlar Mahkamasi bilan Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi vakolatlari o'rtasidagi chegaralanishdagi bo'shliqlar, shuningdek, rezidentlarning xorijdagi sarmoyalari bo'yicha davlat hisoboti va nazorat mexanizmlarining aniqligi yetishmasligi aniqlangan.

Xalqaro tajriba (Xitoy, Germaniya, Frantsiya, AQSh, Yaponiya) bo'yicha solishtirma-huquqiy tahlil asosida O'zbekistonda milliy investitsiyalarni xorijda qo'llab-quvvatlash va sug'urtalashni ta'minlaydigan maxsus institut yaratish zarurligi asoslangan. Integrativ tartibga solish modeli taklif qilingan bo'lib, u investitsiya erkinligi prinsiplarini transchegaraviy operatsiyalarning shaffofligi va hisobotlilikini ta'minlash bilan uyg'unlashtiradi. Muallif tomonidan Xorijiy investitsiyalar agentligining vakolatlarini kengaytirish, chiqayotgan investitsiyalarni yagona hisobini yuritish tizimini ishlab chiqish hamda «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunga xorijdagi investitsiyalar bo'yicha davlat nazorati va nazorat mexanizmlarini belgilovchi yangi moddani kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

“Investitsion nizolarni hal qilish va sud (arbitraj) qarorlarini ijro etishning o'ziga xos jihatlari” deb nomlangan **uchinchi bobda** investorlarni himoya qilishning xalqaro usullariga alohida e'tibor qaratilgan.

“Xalqaro arbitrajlar va milliy sud (arbitraj) organlarida investitsion nizolarni hal qilish” deb nomlangan 3.1-paragrafda investitsiya nizolarini hal qilishning xalqaro-huquqiy va milliy mexanizmlari, ularning institutsional xususiyatlari hamda investorlarni huquqiy himoya qilishdagi ahamiyati o'rganiladi. Ko'rsatildiki, arbitraj protseduralari xorijiy investitsiyalarni kafolatlash xalqaro tizimida muhim o'rin egallaydi va investor hamda davlat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Xalqaro hujjatlar - jumladan, 1965 yildagi Vashington konventsiyasi (ICSID), 1958 yildagi Nyu-York konventsiyasi va UNCITRAL model qonuni tahlili orqali arbitraj jarayonining umumiy standartlari, mustaqillik, shaffoflik va qarorlarni bajarish majburiyati prinsiplari aniqlangan. Maxsus e'tibor Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi (ICSID) yurisdiksiyasi va amaliyotiga qaratilgan bo'lib, unda O'zbekiston ishtirokidagi ishlar, jumladan Metal-Tech Ltd v. Uzbekistan va Oxus Gold v. Uzbekistan ko'rib chiqilgan. Ushbu precedentalar arbitraj yurisdiksiyasini aniqlash, investitsiya halolligi masalalari va davlat mas'uliyati chegaralariga doir qo'llanilayotgan yondashuvlarni tahlil qilish imkonini bergan.

Shuningdek, milliy investitsiya nizolarini hal qilish mexanizmlari ham ko'rib chiqilgan, jumladan Toshkent Xalqaro arbitraj markazi faoliyati va mediatsiya institutining rivojlanishi. Transchegaraviy investitsiyalar o'sishi sharoitida milliy arbitraj tartiblarini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish va arbitraj qarorlarining amalda bajarilishini ta'minlash O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytiladiki, investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha kompleks tizimni shakllantirish zarur bo'lib, u xalqaro va milliy elementlarni uyg'unlashtirgan, huquqiy aniqlik, diskriminatsiya qilmaslik va tomonlarning tengligi prinsiplari asosida tashkil etilgan bo'lishi kerak. Bu zamonaviy xalqaro investitsiya huquqi rivojlanish tendensiyalari va O'zbekiston Respublikasi huquqiy infratuzilmasini mustahkamlash vazifalariga mos keladi.

"Investitsion nizolar bo'yicha xorijiy sud (arbitraj) qarorlarini tan olish va ijro etish" deb nomlangan 3.2-paragrafda investitsiya arbitrajleri qarorlarini ijroga oshirishning xalqaro-huquqiy va milliy mexanizmlari tahlil qilingan, bu esa investorlarning huquqlarini real himoya qilishni ta'minlaydi. Ko'rsatib o'tilishicha, 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga solish bo'yicha universal standartlarni belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi, jumladan V-moddada belgilangan rad etishning to'liq asoslari ham nazarda tutilgan.

3.2-bobda shuningdek, ikki tomonlama investitsiya shartnomalari, mintaqaviy kelishuvlar (Minsk va Kishinev konvensiyalari) hamda Yevropa Ittifoqi Reglamenti №1215/2012 tahlil qilingan bo'lib, bu investitsiya qarorlarini ijroga solishning ko'p darajali huquqiy tizimini shakllantiradi. Maxsus e'tibor jamoat tartibi, davlat immuniteti va ijro bosqichida ta'minlovchi choralarni qo'llash masalalariga qaratilgan, shuningdek, davlatning absolyut immuniteti konsepsiyasidan cheklangan immunitetga o'tish tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

Huquqni qo'llash amaliyotidagi asosiy muammolar aniqlangan: rad etish asoslarini talqin qilishda yagona yondashuvning yo'qligi, qarzdor aktivlarini izlash va musodara qilishdagi qiyinchiliklar, yurisdiksiyalar o'rtasidagi raqobat va sanksiya rejimlariga bog'liq xavflar. Shuningdek, qarorlarni ijroga oshirish samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar keltirilgan, jumladan raqamli texnologiyalarni qo'llash, ijroni elektron kuzatish tizimlari va arbitraj risklarini transcengaraviy sug'urtalash instituti.

O'zbekistonda amaliyotda ijobiy dinamika qayd etilgan, xususan, «Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risida»gi Qonun (2021) va Oliy sud Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi №27-sonli Qarori qabul qilinganidan so'ng, ular xorijiy qarorlarni tan olish va ijroga solish tartibini aniqlashtirdi. Shuningdek, qonunchilikni yanada bir xillashtirish, ta'minlovchi choralar institutini rivojlantirish va milliy arbitraj yurisdiksiyasiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan pro enforcement prinsipini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Xulosa qilinadi, O'zbekistonda davlat va investorlarga oid manfaatlarni muvozanatlash, sud amaliyotining prognoz qilinuvchanligini oshirish va mamlakatning investitsion jozibadorligini mustahkamlashga qaratilgan, xalqaro standartlarga mos samarali va muvofiqlashtirilgan arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga solish mexanizmini shakllantirish zarur.

Har bir paragrafda olingan natijalarning O'zbekistonning investitsiya huquqini rivojlantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyati alohida ta'kidlangan batafsil xulosalar keltiriladi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazani xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar hamda raqamlashtirishning dolzarb tendensiyalari va investorlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishni hisobga olgan holda xorijiy investitsiya loyihalarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha davlat organlariga tavsiyalar ishlab chiqiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan dissertatsion tadqiqot natijasida bir qator nazariy-metodologik, huquqiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalarga erishildi. Ushbu xulosalar milliy investitsiya huquqini rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi subyektlarining xorijdagi investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi kompleks normativ bazani yaratishga muhim hissa qo‘shadi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Aniqlanganidek, chiqib ketuvchi investitsiyalarni faqat huquqiy nuqtai nazardan o‘rganish yetarli emas. Samarali tahlil uchun huquqiy, iqtisodiy va siyosiy aspektlarni birlashtirgan kompleks interdistsiplinar yondashuv talab etiladi. Huquqiy jihat: investorlarga qo‘llaniladigan qoidalar va himoya mexanizmlari aniqlanadi; Iqtisodiy jihat: kapitalni chiqarish motivatsiyasi – bozorlarni kengaytirish va risklarni diversifikatsiya qilish tushuntiriladi; Siyosiy jihat: chiqib ketuvchi investitsiyalarning xalqaro munosabatlar va mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasiga ta‘siri baholanadi.

Faqat shu uch qirrali integratsiya chiqib ketuvchi investitsiyalarning ishlash mexanizmlarini to‘liq tushunish va ularni rivojlantirish uchun samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

2. Ilmiy-doktrinal ta‘rif ishlab chiqildi.

